



“TASDIQLAYMAN”

“UMS” MChJ Ma’muriy direktori

M.R.Kamalidinov

2026-y. “19” 05

“UMS” MChJ (“Universal Mobile Systems” mas’uliyati cheklangan jamiyati) ehtiyojlari uchun
“UMS” MChJning Samarqand shahri Xizmat ko’rsatish markazi ma’muriy binosi fasadini tashqi
tozalash (yuvish) xizmatini

xarid qilish bo’yicha

TEXNIK TOPSHIRIQ

Mundarija

1. Umumiy ma'lumotlar	3
1.1 Xizmatni xarid qilish maqsadi	3
1.2 Xarid amalga oshiriladigan loyihani amalga oshirish uchun asos	3
1.3 Ko'rsatilayotgan xizmatlar ro'yxati va hajmi	3
2. Ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) joyi.....	3
3. Ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) muddatlari	3
4. Xizmatlarning texnik xususiyatlari	3
5. Xavfsizlik talablari	3
6. Kafolatlarni taqdim etish hajmi yoki muddatiga oid talablar	3

1. Umumiy ma'lumotlar

“UMS” MChJning Samarqand shahri Xizmat ko'rsatish markazi ma'muriy binosi fasadini tashqaridan tozalash (yuvish) xizmatlarini ko'rsatish.

1.1 Xizmatni xarid qilish maqsadi

Estetik tashqi ko'rinishni saqlash, devor yuzasini muddatidan oldin buzilishdan himoya qilish.

1.2 Xarid amalga oshiriladigan loyihani amalga oshirish uchun asos

1.3.5.2-modda Bino va xonalarga xizmat ko'rsatish/Sotuvlar ofislari.

1.3 Ko'rsatilayotgan xizmatlar ro'yxati va hajmi

Ko'rsatilayotgan xizmatlar nomi		Hajmi, m ²
Boshqarma ma'muriy binosi fasadini tashqi tomondan tozalash (yuvish) xizmatlarini ko'rsatish	Binoning vitraj konstruksiyalarini (oyna, alyuminiy) tashqi tomondan tozalash (yuvish)	627.7
	Kompozit panellarni (metall panellar, alyupan) tashqaridan tozalash (yuvish)	277
	Derazalarni tashqaridan tozalash (yuvish) (polivinilxlorid, shisha)	627.7
JAMI		1 532,40

2. Ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) joyi

O'zbekiston Respublikasi, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 105-uy

3. Ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) muddatlari

Ishlarni bajarish muddati 1 kun

4. Xavfsizlik talablari

Xizmatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, yong'in xavfsizligi, mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi normalari va qoidalariga, ishlab chiqarish sanitariyasi va atrof-muhitni muhofaza qilish normalariga rioya etilgan holda ko'rsatilishi kerak.

Jarohatlanishning oldini olish uchun xizmat ko'rsatish maydoni ijrochi tomonidan maxsus ogohlantiruvchi belgilar bilan to'silishi shart.

Xizmat ko'rsatish ekologik xavfsiz yuvish vositalarini qo'llagan holda amalga oshirilishi lozim, binoning tashqi ko'rinishi rangining yo'qolishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yuvish vositalaridan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi kerak.

Xizmat ko'rsatish jarayonida metall cho'tkalar va abraziv yuvish vositalarini qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

Ijrochi o'z mutaxassislarini zarur texnika, uskunalar, jihozlar, yuvish vositalari bilan ta'minlashi lozim. Yuvish vositalari, xo'jalik buyumlari, asbob-uskunalar, inventarlar, sanitariya-gigiyena materiallari O'zbekiston Respublikasi davlat standartlariga muvofiq bo'lishi kerak.

Ijrochi quyidagilarga majbur:

- ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini kafolatlashi;

- xizmatlar ko'rsatish vaqtida o'z mutaxassislarining xavfsizligi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq shaxsan javobgar bo'lishi;

- mas'ul shaxslarning hududda bo'lishini hamda ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati va hajmi nazorat qilinishini ta'minlashi.

Xizmatlar ko'rsatish quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- barcha shisha yuzalarni, otkoslarni, deraza tokchalarini va suv oqizgichlarni tashqi tomondan yuvish;

- inventar va yuvish vositalaridan foydalanib oyna sirtlarini yuvish;

- fasaddagi ketishi qiyin bo'lgan kirlarni tozalash;

- fasadni maxsus vositalar bilan yuvish.

Yuqub tozalangandan keyingi sirtlarga qo'yiladigan talablar: fasadlar, shisha sirtlar va konstruktiv panellarda kir va chang to'plamlari, oqma izlar, dog'lar, barmoq izlari, loy surtmalari, qurib qolgan sachratma va tozalash vositasi tomchilari, tozalangan joylar atrofidagi dog'lar hamda artish materialining tuk qoldiqlari bo'lmasligi kerak.

Xizmatlar ko'rsatishda ijrochi fasadlarni yuvish uchun mo'ljallangan va mexanik shikastlanishlarning oldini oladigan uskunalardan foydalanishi shart.

Oynaga shaffoflik va tozalik berish uchun qo'llaniladigan barcha vositalar kimyoviy jihatdan neytral bo'lishi kerak, bu esa oyna yuzasida kamalaksimon dog'lar paydo bo'lishining yoki har qanday fasad elementlari — polivinilxlorid yoxud germetiklar bilan kimyoviy reaksiyaga kirishishining oldini oladi. Barcha vositalar ekologik tozalik va gipoallergenlik talablariga javob berishi, shuningdek, hidsiz bo'lishi kerak.

Bino fasadi va shisha yuzalarni yuvish uchun ijrochi mutaxassislarning xavfsiz harakatlanishini ta'minlaydigan maxsus texnika — avtominoralardan foydalanish mumkin. Avtominora ijrochi tomonidan o'z mablag'lari hisobidan taqdim etilishi lozim.

Ijrochi avtominoradan foydalanib xizmat ko'rsatishda, shuningdek, balandlikda ishlashda o'z mutaxassislarining xavfsizligi uchun to'liq javobgar bo'ladi.

Ijrochi xizmat ko'rsatish davrida o'zining yoki mutaxassislarining aybi bilan mexanik shikastlanishlar, ya'ni pardoqlash materiallari (suvoq, plitkalar), eshik, deraza romlari, binoning konstruktiv elementlari (karnizlar, soyabonlar), novlar, lotoklar, voronkalar, suv quvurlarining buzilishi va shikastlanishi, fasadning bo'yoq qatlami ko'chishi, ko'cha nomi ko'rsatkichlari, uy belgilarining joyidan siljishi, shuningdek bino fasadining rangi yo'qolishi uchun javobgar bo'lishi kerak. Obyektni topshirish vaqtida yuqorida ko'rsatilgan shikastlanishlar mavjud bo'lgan taqdirda, shikastlanishlar xususiyati ko'rsatilgan holda tegishli dalolatnoma tuzilishi shart. Ijrochi tiklash ta'mirini o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirishi kerak.

Xizmatlar tashib keltirilgan suvdan foydalangan holda yoki uchinchi shaxslarga tegishli quduqlar va suv quvurlari orqali ko'rsatilishi lozim.

Bino va uning hududida ruxsatnoma rejimi mavjudligi sababli, Ijrochi xizmat ko'rsatadigan mutaxassislar ro'yxatini hamda ularning binoga va hududga tashrif buyurish vaqtini taqdim etishi shart. Bunda ro'yxatda binoga va hududga kirish huquqini beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar ko'rsatilishi lozim. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining shaxsga doir ma'lumotlar bilan ishlash sohasidagi amaldagi qonunchiligiga muvofiq taqdim etilishi kerak.

Ijrochi tomonidan xizmatlar ko'rsatishga jalb qilinadigan mutaxassislar va avtotransport vositalarining ro'yxati buyurtmachining oldindan so'rovisiz, shartnoma tuzilgan sanadan keyingi ish kunida buyurtmachiga taqdim etilishi kerak. Xizmatlar ko'rsatish ijrochining mutaxassislari va avtotransport vositalari ro'yxati taqdim etilganidan so'ng boshlanishi lozim.

Obyektida xizmat ko'rsatish chog'ida ijrochi fuqarolarning hayoti va sog'lig'i xavfsizligini, mol-mulki saqlanishini hamda sanitariya-gigiyena talablariga rioya etilishini ta'minlashi shart. Ijrochi respirator, virusli va boshqa kasalliklar alomatlari bo'lgan o'z mutaxassislarning bino va uning hududida bo'lishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

Boshqarma xodimlari va buyurtmachi, ijrochi mutaxassislari hamda boshqa toifadagi fuqarolarning shaxsiy va jamoaviy xavfsizligini ta'minlash maqsadida, ijrochi xizmat ko'rsatish jarayonida mehnatni muhofaza qilish, sanoat va yong'in xavfsizligi bo'yicha zarur tadbirlarni normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq ta'minlashi lozim. Ijrochi mutaxassislari mas'ul xodim bilan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha kirish yo'riqnomasidan o'tishlari shart. Belgilangan tartibda kirish yo'riqnomasidan o'tmagan shaxslar obyektga kiritilmaydi.

Ijrochi xizmatlar ko'rsatishda o'z mutaxassislari tomonidan texnika xavfsizligi, mehnatni muhofaza qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etilishi, o'z mutaxassislari O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan namunaviy tarmoq normalari va ularni ta'minlash hamda qo'llash qoidalariga muvofiq shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanishi uchun javob berishi kerak.

Xizmatlar ko'rsatish boshqarma xodimlarining ishiga to'sqinlik qilmasligi yoki noqulaylik tug'dirmasligi, ularning hayoti va sog'lig'iga xavf solmasligi kerak.

Ko'rsatilgan xizmatlar sifatining kafolati ijrochi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning butun hajmi uchun shartnomaning butun amal qilish muddati davomida taqdim etilishi kerak.

5. Kafolatlarni taqdim etish hajmi yoki muddatiga oid talablar

Ko'rsatilgan xizmatlar sifati kafolati Ijrochi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning butun hajmi uchun shartnomaning butun amal qilish muddati davomida taqdim etilishi shart.

Ishlab chiqilgan:

Ma'muriy faoliyatga hamrohlik qilish guruhi rahbari



B.F. Ubaydullayev

Tayyorladi:

Ma'muriy faoliyatga hamrohlik qilish guruhi yetakchi mutaxassisi



M.S. Ruzaykina

